MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION MEXANIZMLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Xasanova Sofiya Komoliddinovna
sofiyakhasanova777@gmail.com
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning manbalari, tarkibi va hududiy taqsimoti tahlil qilingan. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida joylashtirish vositalarining hududiy jamlanganligi aniqlanib, davlat va xususiy kapitalni uyg‘unlashtirishga asoslangan investitsion mexanizmni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa iqtisodiyoti, turizm infratuzilmasi, investitsion mexanizm, davlat-xususiy sheriklik, joylashtirish vositalari, o‘sish qutbi, Qashqadaryo viloyati.

Kirish. Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida infratuzilma hudud raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. F.Perruning o‘sish qutblari nazariyasiga ko‘ra, investitsiyalar muayyan nuqtalarda jamlanib, keyinchalik atrofdagi hududlarga tarqaladi [7], M.Porterning klaster konsepsiyasi esa bir hududda o‘zaro bog‘liq korxonalarning to‘planishi raqobat ustunligini yaratishini asoslaydi [6]. Turizm infratuzilmasi ikki tomonlama xususiyatga ega: yo‘l va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari jamoat ne’mati bo‘lsa, mehmonxona va dam olish obyektlari tijorat aktivi hisoblanadi. Shu sababli uni rivojlantirishda yagona moliyalashtirish manbasi emas, balki davlat va xususiy kapitalni birlashtiruvchi mexanizm talab etiladi.

Davlat siyosati darajasida ushbu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni bilan mustahkamlanib, unda har yili 30-noyabrga qadar turizmni rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish belgilandi [1]. Qashqadaryo viloyatida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-martdagi 112-son qarori bilan turizmni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, unga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 200 mlrd so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi [2]. Mamlakatimiz Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi qarori bilan esa “Shahrisabz” va “Maydanak baland tog‘” turistik markazlarini boshqaruvchi maxsus departament tuzilib, tog‘li-rekreatsion hududlar alohida investitsiya zonasi sifatida ajratildi [3].

Ushbu choralar natijasida joylashtirish bazasi sezilarli kengaydi. Viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari obyektlari soni 2020-yildagi 41 tadan 2024-yilda 79 taga, nomer fondi esa 800 tadan 1207 taga, ya’ni 50,9 foizga oshgan [4]. So‘nggi yillarda viloyatda mehmonxona fondi 10 karraga, xorijiy sayyohlar oqimi esa 31 barobarga ko‘paygan. Shahrisabzga “Jahon hunarmandlar shahri” maqomining berilishi esa bu salohiyatni yanada kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda [10].

Biroq hududiy kesimdagi tahlil infratuzilmaning notekis joylashganini ko‘rsatadi. 2024-yilda mehmonxona tipidagi 1207 ta nomerning 659 tasi, ya’ni 54,6 foizi Qarshi shahrida jamlangan, Mirishkor, Muborak, Kasbi va Yakkabog‘ tumanlarida esa bunday obyektlar umuman qayd etilmagan [4]. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalaridagi 7963 o‘rinning 77,6 foizi faqat Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlariga to‘g‘ri keladi [4]. Demak, investitsiyalar ma’muriy markaz va tog‘li-rekreatsion zona atrofida “o‘sish qutblari” shaklida to‘planib, dasht tumanlariga hali yetarli darajada tarqalmagan.

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Investitsion mexanizm samaradorligini Shahrisabz tumanidagi uchta turizm mahallasi loyihasi yaqqol ko‘rsatadi. Germaniyalik hamkorlar bilan ishlab chiqilgan master-reja doirasida 450 mln AQSh dollarlik investitsiyaning 367 mln dollari, ya’ni 81 foizi tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda [5]. Hisob-kitoblariga ko‘ra, ushbu nisbatni xususiy kapitalni jalb qilish koeffitsiyenti orqali ifodalash mumkin:

K = Ix / Io = 367 / (450 − 367) ≈ 4,4

bu yerda **Ix** — tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiyalar, **Io** — loyihaning boshqa manbalar (davlat mablag‘lari, kreditlar va boshqalar) hisobidan moliyalashtiriladigan qismi. Fikrimizcha, bu ko‘rsatkich loyihada xususiy bo‘lmagan manbalardan kiritilgan har bir dollarga 4,4 dollar xususiy kapital to‘g‘ri kelishini va davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarning tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirayotganini ko‘rsatadi.

Shunga o‘xshash yondashuv Miraki turizm markazida ham qo‘llanib, 240 gektar hududda 400 mln dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilmoqda [8], markaz bugungi kunda yiliga 1 mln sayyohni qabul qilmoqda [9].

Xulosa va takliflar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, “davlat muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini quradi, xususiy sektor esa turistik obyektlarni barpo etadi” tamoyiliga asoslangan mexanizm viloyatda yuqori samara bermoqda, biroq investitsiyalarning hududiy jamlanganligi mintaqa ichidagi tafovutni chuqurlashtirishi mumkin.

Shu bois, birinchidan, hududiy dasturlarda turizm infratuzilmasiga yo‘naltiriladigan davlat mablag‘larini tumanlar kesimida joylashtirish vositalari bilan ta’minlanganlik darajasiga qarab taqsimlash;

ikkinchidan, Shahrisabz va Miraki tajribasini Qamashi, G‘uzor va Chiroqchi tumanlaridagi tabiat maskanlariga [11] davlat-xususiy sheriklik asosida ko‘chirish;

uchinchidan, hududiy investitsiya dasturlari monitoringiga xususiy kapitalni jalb qilish koeffitsiyenti va bir nomerga to‘g‘ri keladigan investitsiya hajmi kabi ko‘rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-7531559
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 1-martdagi 112-son qarori. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/qashqadareda_turizmni_rivojlantirishga_200_mlrd_sum_ajratiladi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-noyabrdagi qarori. https://dunyo.info
4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatida turizm va dam olishning rivojlanishi (2024-yil uchun). Press-reliz, 23.07.2025. URL: https://www.qashstat.uz/uploads/press24/Turizm-Yan-Dek-2025.pdf

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

5. Shahrisabz aeroportida fuqaro aviatsiyasi yo‘lga qo‘yiladi // Kun.uz, 25.10.2023. https://kun.uz/news/2023/10/25/shahrisabz-aeroportida-fuqaro-aviatsiyasi-yolga-qoyiladi
6. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90.
7. Perroux F. Note sur la notion de «pôle de croissance» // Économie appliquée. – 1955. – No. 8. – P. 307–320.
8. Miraki xalqaro turizm markazi mehmonlarni chorlaydi // Yuz.uz. https://yuz.uz/kz/news/miraki-xalqaro-turizm-markazi-mehmonlarni-chorlaydi
9. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi // President.uz, 11.03.2026. URL: https://president.uz/uz/lists/view/9005
10. Yangi marralar sari dadil qadam tashlash ayyomi // O‘zA, 2026. https://uza.uz/ar/posts/yangi-marralar-sari-dadil-qadam-tashlash-ayyomi_902616
11. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tildi // President.uz, 20.06.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8247

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.